

ABDURAHMON JOMIYNING “FAVOIDUZ ZIYOIYYA” (“SHARXI MULLO”) ASARI
HAQIDA.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Osiyo xalqlari tili va adabiyoti institute 70230101
Lingvistika (arab tili) Arabshunoslik oliy maktabi Magistratura I bosqich talabasi

Vakkosova Mushtariy Polotjonovna

Tel.: +998917727247,

e-mail akchabayevamushtariy@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dots. Begmatova Buzahro

Annotation: Many distinguished scholars, including Sibawayh, Al-Khalil ibn Ahmad, Al-Kisai, Ibn Jinni, Zamakhshari, and Ibn Hisham, played a crucial role in systematizing Arabic phonetics, morphology, and syntax. In particular, Ibn Hujib's *Al-Kafiya fi-n-Nahw* brought Arabic grammar to a new level. Although this work was widely used as a grammatical textbook in Eastern madrasas, its complexity made it difficult for many students to comprehend. To address this issue, Abdurahman Jami wrote *Al-Fawaid al-Ziya'iyya*, which provided a comprehensive explanation of *Al-Kafiya*, making it more accessible and practical for learners. This article explores the scholarly contributions to the development of Arabic grammar, with a particular focus on Jami's linguistic views and his significance in Arabic linguistics.

Keywords: Nahw, Jami, *Fawaid al-Ziya'iyya*, *Sharh-i Mullo*, *Al-Kafiya*, Arabic studies, linguistics, syntax, morphology, grammar.

Annotatsiya: Arab tili grammatikasining shakllanishi va rivojlanishiga ko'plab buyuk olimlar hissa qo'shgan. Sibavayh, Al-Xalil ibn Ahmad, Al-Kisoi, Ibn Jinni, Zamaxshariy va Ibn Hishom kabi tilshunoslar arab tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini tizimli asosda shakllantirishga katta hissa qo'shganlar. Ayniqsa, Ibn Hojib o'zining *Al-Kofiya fi-n-Nahv* asari bilan nahv ilmini yangi bosqichga olib chiqqan. Ushbu asar Sharq madrasalarida grammatik darslik sifatida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, uning murakkabligi sababli ko'plab talabalarga tushunish qiyin bo'lgan. Shu sababli, Abdurahmon Jomiy *Al-Favoidu-z-Ziyo'iyya* asarini yozib, *Al-Kofiyaning* mazmunini chuqur izohlab, undan samarali foydalanish imkoniyatini yaratgan. Mazkur maqolada arab grammatikasi rivojiga qo'shilgan ushbu ilmiy meros yoritiladi va xususan, Jomiyning qarashlari hamda uning arab tilshunosligidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Nahv, Jomiy, Favoiduz Ziyodiya, Sharxi Mullo, al-Kofiya, arabshunoslik, tilshunoslik, sintaksis, morfologiya, grammatika.

Abdurahmon Jomiy (1414–1492) buyuk mutafakkir, shoir va tilshunos bo'lib, u Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm-fan va adabiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. U Hirotida tavallud topgan va dastlabki ta'limni o'z davrining mashhur olimlaridan olgan. Yoshligidan Qur'on va fiqh ilmini mukammal o'zlashtirgan Jomiy keyinchalik Samarqand madrasalarida tahsil olib, mantiq, falsafa, fiqh, tasavvuf va tilshunoslik ilmlarini chuqur o'rgangan.

Jomiy Hirotga qaytgach, tasavvuf yo'liga kirib, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri bo'ldi. Shu bilan birga, u Hirot va butun Movarounnahr madrasalarida dars berib, nahv, sarf, mantiq va falsafa bo'yicha ilmiy faoliyat olib bordi. U Temuriylar sulolasi hukmdorlaridan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan yaqin aloqada bo'lib, o'z ilmiy va adabiy merosi bilan keng e'tirof etilgan. Alisher Navoiy o'zining turli asarlarida Jomiyning ilmiy va adabiy xizmatlarini madh etgan.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Navoiy o'zining *Xamsat ul-mutahayyirin* asarida Jomiyni ilm-fan, she'riyat va tasavvufning mukammal timsoli sifatida ta'riflab, uni insoniy kamolot cho'qqisiga yetgan siymo sifatida taqdim etadi:

"Agar Jomiy bo'lmaganda, she'riyatda bunday ravnaq topish mushkul edi¹."

Jomiy o'z davrining eng yirik mutafakkir va adabiyot namoyandalardan biri bo'lib, uning hayoti va ijodi to'rtta asosiy biografik manbada qayd etilgan.² Zamondoshlari Jomiyni ulkan ehtirom bilan qadrlagan va uning ijodi Sharq adabiy an'alarida alohida o'rin tutgan. Shu sababli, Jomiyning asarlarining aksariyati—jumladan, she'riy va nasriy matnlari—arab hamda fors tillarida yozilgan holda bizgacha yetib kelgan. Ulardan ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri uning o'z qo'li bilan bitilgan bo'lib, bu asarlarning haqiqiyli va tarixiy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Jomiyning tarjimai holiga oid eng muhim manbalardan biri uning "Rashh-i bāl bi sharh-i hāl" nomli qasidasidir. U ushbu asarini vafotidan besh yil avval yozib, unda o'z hayot yo'li, bolalik yillaridagi faoliyati, ilmiy ta'lim olishi hamda she'riyatga qiziqishi haqida batafsil ma'lumot bergan. Ushbu qasida faqat tarjimai holii manba sifatida emas, balki Jomiyning ma'naviy va falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim matn sifatida ham e'tiborni tortadi. Ayniqsa, Jomiy muhabbat tushunchasiga alohida urg'u berib, uni insonning ruhiy kamoloti va intellektual taraqqiyotidagi asosiy omillardan biri sifatida talqin qiladi.

Jomiy hayotining turli davrlarini o'zining uchta devonida tasniflagan bo'lib, bu tasnif uning ilmiy va ijodiy kamolot bosqichlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega. U o'z hayotini uch asosiy bosqichga ajratgan: "Fāṭihāt al-Shabāb" (yoshlik davri), "Wasīyat al-'Aqd" (o'rta yosh davri) va "Khāṭimat al-Hayāt" (hayotining so'nggi bosqichi). Birinchi devon, Jomiyning 65 yoshgacha yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, ikkinchi devon 66 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan ijodiy faoliyatini qamrab oladi. Uchinchi devon esa, shoir hayotining so'nggi uch yilida yozilgan she'rlarini o'z ichiga olgan bo'lib, uning ijodiy yetuklik davrini aks ettiradi. Ushbu devonlar faqatgina she'riy ijod namunasi bo'lib qolmay, balki Jomiyning falsafiy dunyoqarashi, tasavvufiy tajribasi va ilmiy mushohadalarining mukammal aksidir.

Jomiyning hayoti va ijodi faqatgina adabiy jarayon bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy tafakkurning keng yo'nalishlarini ham o'z ichiga olgan. U grammatika, mantiq va diniy ilmlar sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lib, bu uning asarlarida o'z aksini topgan. Uning ta'siri o'z davrida nafaqat fors va arab adabiyotida, balki ilmiy doiralarda ham chuqur iz qoldirgan. Shu bois, Jomiyni faqat shoir yoki tasavvuf olimi sifatida emas, balki o'z davrining yirik tilshunosi va ilmiy tafakkur namoyandasi sifatida ham baholash mumkin. Garchi, Jomiyning arab grammatikasi ilmida markaziy o'rin egallagan olimlardan biri emasligi ma'lum bo'lsa-da, uning "Favoiduz Ziyoiyya" asari orqali bu sohaga qo'shgan hissasi shubhasizdir. Ushbu ish natijasida arab grammatikasi bilan bog'liq boshqa asarlarni ham o'rganish va baholash imkoniyati mavjudligi ayon bo'ladi. Shu sababli, Jomiy arab grammatikasi tarixida muhim nomlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, arab nahv ilmi juda qisqa vaqt ichida — VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning birinchi yarmida shakllanib, mukammal ilmiy tizim sifatida qaror topgan. Bu davrda nahvning asosiy qoidalari ishlab chiqilib, tilshunoslikning fundamental tamoyillari shakllantirildi. Ayniqsa, Yahyo Advoniy, Abdulloh bin Is'hoq Hazrumiy, Iso bin Umar Saka'fiy, Xalil bin Ahmad Farohidiy,

¹ Alisher Navoiy. (1987). *Xamsat ul-mutahayyirin*. Alisher Navoiy asarlari (5-jild,). Toshkent: Fan nashriyoti.

² Ushbu to'rtta asosiy biografik manbalar quyidagilardan iborat: "*Maqāmāt-i Jomiy*" — Abd al-Vosī' Nizomiy Baxarziy, "*Takmila-yi Nafahāt al-Uns*" — Abd al-G'afur Loriy, "*Rashahāt 'Ayn al-Hayāt*" — Faxriddin Ali Safiy, "*Xamsat ul-Mutahayyirin*" — Alisher Navoiy.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Sibavayh, Kisoiy, Abulhasan Axfash, Solih bin Is'hoq Aljurniy, Bakr bin Usmon Moziniy, Mubarrad, Abu Is'hoq az-Zajjoj, Abu Ali Forisiy, Hasan Sayrofiy, Shayx Abdulqohir Jurjoniy va Ibn Hojib kabi allomalar ushbu fan rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy merosi nahv ilmining shakllanishiga asos bo'lib, bu fan keyingi asrlarda ham yuqori ilmiy darajada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ular nahvni tilshunoslikning eng asosiy tarmoqlaridan biri sifatida kamolga yetkazib, uni tizimli va mukammal fan darajasiga olib chiqdilar.³

Nima uchun bu asar boshqa grammatik asarlarga nisbatan shunchalik katta mashhurlikka ega degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Ma'lumki, XIII asrda yashab o'tgan mashhur arab tilshunosi Ibn Hojibning "al-Kofiya" asari arab tili grammatikasiga oid muhim manba hisoblangan, va ko'p asrlar davomida sharqda nahv ilmiga oid asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan, va ko'plab madrasa va maktablarning asosiy o'quv qo'llanmasiga aylangan. Shu bilan birga, asarning ko'plab sharxlari va nusxalari paydo bo'lgan. Biroq, uning tili va uslubi murakkab bo'lganligi sababli, ko'pchilik uchun tushunish qiyin bo'lgan. Xususan, uning o'g'li Ziyovuddin Yusuf ham bu darslikni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Shuning uchun Jomiy bu asarga sharh yozish orqali arab tili grammatikasini o'rganuvchilar uchun tushunarli va mukammal qo'llanma yaratishni maqsad qilgan. Asar nomi ham arab tilidan "Favoiduz ziyoiyya" ya'ni "Ziyovuddinga maslaxatlar" deb tarjima qilinadi³. Ushbu asar keyinchalik "Sharhi Mullo" nomi bilan xalq orasida tanilgan⁴. Shundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharx yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiyning sharxi esa "Sharxi Mullo", "Al-Favoid fi sharx "al-Kofiya", "Sharxi Kofiya", "Sharxi "Kofiya"yi Ibn Hojib", "Sharxi Jomiy", "Al-Favoid az-Ziyoiyya fi ilm al-Kofiya" kabi nomlar bilan shuxrat qozonadi⁵. Ko'pchilik Abdurahmon Jomiyi Sharq adabiyotining yetuk namoyandasi, fors-tojik she'riyatining yuksak vakili sifatida biladi. Biroq Jomiy faqat adabiyotda emas, balki tilshunoslik, xususan, arab tili grammatikasi sohasida ham muhim ilmiy meros qoldirgan. Ayniqsa, uning "Al-Favoid az-Ziyoiyya" (Sharh-i Mullo) asari arab grammatikasiga oid eng muhim ilmiy manbalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu asar Xuroson va Movarounnahr madrasalarida 500 yil davomida nahv ilmi bo'yicha asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Jomiyning ushbu sharhi nahv qoidalarining mukammal izohi va grammatik jihatdan murakkab tushunchalarni yoritish uslubi bilan ajralib turadi⁶. Shuningdek, bugungi kunda ham sharq mamlakatlarida, xususan, Markaziy Osiyoda madarasa va maktablarda darslik sifatida o'qitiladi.

"Favoiduz Ziyoiyya"—arab tili grammatikasiga bag'ishlangan yirik va ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi asarlardan biridir. Ushbu fundamental ilmiy meros tuzilishi jihatidan muqaddima va uch asosiy bo'limdan iborat bo'lib, unda jami 97 ta grammatik mavzu keng qamrovli tahlil qilingan. Asarning muqaddimasida kirish so'zidan so'ng uning yozilish sabablari haqida batafsil malumot berilgan: "Bu asarni (sharximni) "Al-Favoidu-z-Ziyoiyya" (Ziyovuddinga foydalar) deb nomladim. Chunki u mana shu sharxning yozilishi uchun asl sababchi bo'ldi. Alloh taolo ushbu sharhimni unga (Ziyovuddinga) va barcha boshlang'ich tolibi ilmlarga foydali qilsin!"⁷

³ Jo'rayeva, M. A. (2020). "Abdurahmon Jomiy "Al-Favoidu-z-Ziyoiyya" asarining lingvistik tadqiqi." Toshkent.

⁴ Ziyoyev, T. (1989). *Рукописи "Ал-Фавоид-ад-Дийуаийа" Абдар-Рахмана Джами, хранящегося в фонде Института рукописей АН РУ*. Ташкент, 164 с

⁵ Afzakhzod, A. (1988). *Лирика Абд ар-Рахмана Джами (Проблемы текста и поэтики)*. Москва, 3 с.

⁶ Институт востоковедения. (n.d.). Абдурахман Джами и его научное наследие. Востоковедческие исследования. По состоянию на 9 февраля 2025 года получено с сайта:

http://www.orientalstudies.ru/rus/index.php?option=com_publications&Itemid=75&pub=253.

⁷ Qarang: Abdurahmon Jomiy. (n.d.). *Al-Favoid az-Ziyoiyya (Sharh-i Kofiya)*. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozma №9665, 1b-sahifa.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

"Favoiduz Ziyoiyya" asari arab tilidagi soʻz turkumlari soni va nomlari kabi 3 ta bobdan iborat:

1. "Ism" deb nomlangan birinchi bob shu soʻz turkumiga taʼrif berilgan va bu turkumga oid boʻlgan 71 ta mavzuni batafsil yoritib berilgan. Bu bob hajm jihatidan boshqalarga nisbatan ancha katta boʻlish bilan birga, ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va mazmunaan juda boy maʼlumotlarga egadir.
2. "Fe'l" bobi esa, shu soʻz turkumining mazmunini ochib berish bilan boshlanib, oʻz ichiga 10 ta mavzuni oladi. Bu bob ham grammatik va ilmiy jihatdan juda chuqur izhlab berilgan.
3. "Xarf" yaʼni arab tilidagi yordamchi sozʼlarga bagishlangan bu bob, bogʻlovchilar, yuklamalar, old koʻmakchilar haqida toʻliq maʼlumot beradi va bunda ularning 16 turi toʻliq bayon etiladi. Shuni taʼkidlash joizki, bu uch bob bir-birini mazmunan boyitib, oʻquvchilarga yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Abdurahmon Jomiy ushbu asarni yaratish jarayonida arab nahvshunoslik anʼanalariga chuqur tayanib, Sibavayh, Mahmud Zamaxshariy kabi mashhur tilshunoslarning qarashlarini chuqur oʻrgangan va ularga tahliliy yondashgan. U oʻz asarida nafaqat mavjud grammatik tamoyillarni sharhlab bergan, balki Basra va Kufa nahv maktablarining eng muhim ilmiy xulosalarini oʻzaro uygʻunlashtirib, yanada mukammal ilmiy asos yaratgan. Shu tariqa, Jomiy arab tilshunosligi tarixida oʻziga xos ilmiy yoʻnalish bilan ajralib turuvchi muhim olimlardan biri sifatida eʼtirof etilgan.

Natijada, *Al-Favoiduz-Ziyoiyya* nafaqat Jomiyning grammatik qarashlarini aks ettirgan muhim ilmiy yodgorlik, balki oʻrta asrlardagi madrasalarda arab tili grammatikasini oʻqitishning asosiy qoʻllanmasiga aylangan. Ushbu asar bugungi kunda ham oʻz ilmiy dolzarbligini saqlab qolgan boʻlib, nafaqat arab tili grammatikasi boʻyicha tadqiqot olib borayotgan olimlar va talabalarga, balki dunyoning yetakchi universitetlari va madrasalarida ham qoʻllanma sifatida foydalanilayotgani bois bebaho ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Alisher Navoiy. (1987). *Xamsat ul-mutahayyirin. Alisher Navoiy asarlari* (5-jild). Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Joʻrayeva, M. A. (2020). *Abdurahmon Jomiy "Al-Favoidu-z-Ziyoiyya" asarining lingvistik tadqiqi*. Toshkent.
3. Ziyoyev, T. (1989). *Рукописи "Ал-Фавоид ад-Дийаиййа" Абдар-Рахмана Джами, хранящегося в фонде Института рукописей АН РУ*. Ташкент, 164 с.
4. Afzakhzod, A. (1988). *Лирика Абд ар-Рахмана Джами (Проблемы текста и поэтики)*. Москва, 3 с.
5. Abdurahmon Jomiy. (n.d.). *Al-Favoid az-Ziyoiyya (Sharx-i Kofiya)*. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Qoʻlyozma №9665, 1b-sahifa.
6. Институт востоковедения. (n.d.). *Абдурахман Джами и его научное наследие. Востоковедческие исследования*. По состоянию на 9 февраля 2025 года получено с сайта http://www.orientalstudies.ru/rus/index.php?option=com_publications&Itemid=75&pub=253.